



QALMOQQIR MIS KONI

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

FQKG-22A guruh talabalari:

Yuldashev Ulug‘bek

Raxmonov Bobur

Zulfiqorov Nodir

Tog‘aymurodov Bobur

Annotatsiya

Ushbu maqolada Qalmoqqir mis konining geologik xususiyatlari, konning o‘rganilish tarixi, ruda qazib olish usullari va transport tizimlari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Maqolada konning bugungi kundagi ishlab chiqarish jarayonlari, portlatish ishlari, burg‘ulash texnologiyalari hamda transport vositalarining roli yoritilgan.

Kirish

Qalmoqqir koni O‘zbekiston Respublikasi hududidagi eng yirik mis konlaridan biridir. Mazkur kon mamlakat iqtisodiyoti va metallurgiya sanoati uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lib, Surxondaryo va Navoiy viloyatlaridagi boshqa konlar singari yirik miqdorda rangli metall zahiralari bilan ajralib turadi. Ushbu konning o‘rganilishi va ishlab chiqarishga joriy etilishi O‘zbekiston konchilik sanoatining rivojlanishida muhim bosqich bo‘ldi.

Qalmoqqir koni mis, molibden, oltin, kumush kabi qimmatbaho elementlarga boy bo‘lib, ruda qatlamlari chuqur qatlamlarda joylashgan. Karyer 1950-yillarning o‘rtalaridan boshlab faoliyat yurita boshlagan va bugungi kunga kelib zamonaviy texnologiyalar yordamida ishlab chiqarish ishlari olib borilmoqda. Konda ishlab



chiqarishning mexanizatsiyalashgan tizimi joriy etilgan bo'lib, bu unumdorlikni oshirish hamda xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Qalmoqqir konining tarixi

Karyer qurilishi 1954-yilda boshlanib, 1959-yil 1-iyulda Qalmoqqir konining birinchi navbatini ishga tushirish to'g'risida dalolatnoma imzolangan. Konni dastlabki o'zlashtirish loyihasi Leningradning "Gipruda" instituti tomonidan tuzilgan, so'ngra Qalmoqqir konining loyihasi Moskva "Giprosvetmet" institutiga topshirilgan va 1960-yilda institut kengaytirish loyihasini ishlab chiqqan.

O'sha paytda yuk tashish uskunasi sifatida Ural og'ir mashinasozlik zavodining cho'mich hajmi uch kub bo'lgan SE 3 ekskavatorlaridan, ag'darmalarga jinslarni tashishda esa yuk ko'tarish qobiliyati uch tonnadan o'n tonnagacha bo'lgan avtomobillaridan foydalanilgan.

Konda 1963-yildan boshlab EKG-8 qoyali ekskavatorlari ishlagan, ruda va jins bilan og'ir yukli sostavlar tortish og'irligi 150 tonna bo'lgan elektrovozlar yordamida tashilgan. 1965-yil oxiriga kelib, barcha arqon-zarbali burg'ulash uskunalari VSV-3, BSSH 2M tipidagi sharoshkali burg'ulash uskunalari bilan almashtirildi. Yetmishinchi yillarning boshlarida tog'-kon uskunalarining yangilanishi boshlandi.

Bugungi kundagi konning o'rni

Karyer yiliga 5-6 m ga chuqurlashmoqda, ish jabhasining oldinga siljish tezligi esa 90-100 m. "Qalmoqqir" konining atrofi kichik tepalikli tabiatga ega. Konning eng baland nuqtalarining dominant sathidan balandligi taxminan 200 m. Hududning tabiati konning yuqori qismini tog' karyeri



tomonidan qazib olish imkoniyatini oldindan belgilab qo'ygan. Konning bu qismi yarim xandaklar bilan ochilgan. Konning hududning ustunlik darajasidan pastda joylashgan qismi +660 m belgisidan boshlab, statsionar tashqi xandaq bilan ochilgan.

Avtomobil transportidan karyerning yuqori gorizontlarida, +760 m va undan yuqori balandlikdagi joylarda, shuningdek, gorizontlarni ochishda kapital va yangi kesmli xandaqlarida foydalaniladi. Temir yo'l transporti yuklarni temir yo'l ag'darmalariga va rudalarni qayta ishlash zavodiga tashish uchun ishlatiladi.

Konda portlatish quduqlarini burg'ulash SBSH-250 MNA-32 burg'ulash qurilmalari bilan amalga oshiriladi. Quduqlar diametri 244,5 mm bo'lgan sharoshkali dolotalar bilan burg'ulanadi. Uskuna quruq va sug'orilgan, monolit va singan jinslarda quduqlarni burg'ulashi mumkin.

Tog' jinslarini transport vositalariga yuklash mexanik belkurak tipidagi siklik ekskavatorlar tomonidan amalga oshiriladi. Hozirda 4,6 m³ dan 15 m³ gacha cho'mich sig'imiga ega EKG-20, EKG-15, EKG-12,5, EKG-10, EKG-8I, EKG-6,3, EKG-5U, EKG-5A, EKG-4,6 rusumli ekskavatorlardan foydalanilmoqda.

Ustki qatlam jinslari va rudalar elektrlashtirilgan temir yo'l transportida tashiladi. Yuqori gorizontlardan (760 m va undan yuqori) ustki qatlamni ag'darmalarga va rudalarni qayta yuklash punktlariga tashish avtomobil transporti orqali amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "O'zbekiston konchilik sanoati tarixi" – Toshkent, 2015.
2. "Geologiya va foydali qazilmalar" – O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2019.
3. Qalmoqqir koni rasmiy ma'lumotlari (Almalyk KMK arxivi).
4. "Tog'-kon ishlarini tashkil etish" – Oliy ta'lim darsligi, Toshkent, 2021.